



**”NASOYIM UL-MUHABBAT” ASARIDA MUTASAVVUF VA  
MASHOYIXLAR TALQINI”**

*Termiz davlat universiteti*

*O’zbek filologiyasi fakulteti*

*2-bosqich 123-guruh talabasi*

*Abdurahmonova Farangiz*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada ”Tazkirat ul-avliyo” hamda ”Nasoyim ul-muhabbat” asarlari badiiy va tasavvufiy jihatdan o’zaro qiyoslanadi. Chunonchi, har ikkala asarda keltirilgan so’fiy va shayxlar hayoti haqidagi ma’lumotlar ko’rsatib o’tiladi.

**Abstract:** This article compares the works "Tazkirat ul-Awliya" and "Nasayim ul-Muhabbat" in terms of their artistic and mystical content. For example, it presents information about the lives of Sufis and sheikhs presented in both works.

**Kalit so’zlar:** Tasavvuf, tazkira, avliyo, shayx, so’fiy.

**Keywords:** Sufism, tazkira, saint, sheikh, Sufi.

O’zbek adabiyotining mehri olamoroyi, ya’ni olamni yorituvchi quyoshi hisoblangan buyuk shoir va mutasavvuf olim Alisher Navoiydir, desak mubolag’ a bo’lmaydi. Uning o’zbek adabiyoti ganjiga, xususan, tasavvuf adabiyotiga qo’shgan hissasi shu qadar yuksak va qimmatliki, bu jabhalarda Navoiy dahosiga qoyil qolmaslikning iloji yo’q. Adibning “Xamsa”, “Xazoyin ul maoniy”, “Nazm ul-javohir” kabi mislsiz durdona asarlari qatoriga shayxlar va so’fiylar hayotiga bag’ishlab yozilgan “Nasoyim ul-muhabbat min shamoyim ul-futuvvat” asarini ham qo’shish mumkin. Negaki ushbu asar butun tasavvuf olamida mashhurlikka erishdi hamda tasavvuf tarixini shunday mukammal yoritib berdiki, ungacha yozilgan asarlarning shuhratiga soya soldi. Aslida, bu asar fors-tojik adabiyotining dahosi mavlono Abdurahmon Jomiyning “Nafahot ul-uns min hazarot ul-quds” (“Pok zotlar huzuridan esgan do’stlikning xush islari”) kitobining turkiy tildagi erkin tarjimasidir.



Asar nomiga e'tibor beradigan bo'lsak, "Nasoyim ul-muhabbat min shamoyim ul-futuvvat" , ya'ni tarjimasi "Ulug'lik xushbo'yliklarini taratuvchi muhabbat shabadalari" deyarli Jomiy o'z kitobiga qo'ygan sarlavha bilan sinonim. Chunonchi, ulug'lik xushbo'yliklarini taratuvchi deyilganda beixtiyor mashhur so'fiylar va mutassavvuflar ko'z oldimizga keladi. Demak, Navoiyning ushbu asarida aynan tasavvuf ta'limotining taniqli 770 arboblari haqida so'z boradi. Ayniqsa, ularning 35 nafari avliyo ayollar ekanligi qadimdan islomda ayollarning mavqeyi doim ulug' ekanligini yana bir bor isbotlaydi. Asarda Jomiy, Lutfiy, Shayx Sa'non, Nasimi, binonarin, turkigo'y mashoyixlardan Sulaymon Boqirg'oniy hamda Yassaviylar haqida qimmatli ma'lumotlar keltirilgan. "Nasoyim ul-muhabbat" kitobi muqaddima bilan boshlanib, Navoiyning ilk shayx Uvays Qaraniy haqidagi fikrlari bilan davom etadi. Qaraniy hazratlari payg'ambarimizning sevimli ummatlaridan bo'lib, ko'rmagani holda ul kishiga "Sarvar ul-anbiyo" – Payg'ambarimizning bo'lakcha mehrlari tushib qoladi. Uvays Qaraniyning ham Rasulimizga muhabbatlari shu darajada ediki, Uhud jangida Janob Rasulullohning bitta tishi tushganidan xabar topib, o'zining soppa-sog' tishlarini urib sindiradilar. Shu o'rinda ko'plab tasavvufga oid nafis kitoblarning bosh o'zani hisoblangan "Tazkirat ul-avliyo" asariga murojaat qilish o'rinnlidir. Ushbu asar fors adabiyotining gultoji Farididdin Attorning o'tkir qalamidan chiqqan so'zlardan iboratdir. Asarda 72 nafar shayx va valiyalar hayoti qalamga olingan. Ko'rinish turibdiki, Navoiy o'z asarida Farididdin Attorning "Tazkitat ul-avliyo" kitobiga ergashgan holda ma'lum va mashhur "Nasoyim ul-muhabbat" asarini bitgan. Shuning uchun ham asarda juda mutanosib ma'lumotlar ko'p uchraydi. Xususan, "Nasoyim ul-muhabbat" kitobining birinchi valysi Uvays Qaraniy hazratlariga ham "Tazkirat ul-avliyo"da to'xtab o'tilgan. Ul zot Yaman yurtining yo'lchi yulduzi bo'lib, fazilat va iymon bobida shunday yuksaklikka ko'tarilgan ediki, hatto Payg'ambarimiz ul kishi xususida shunday der edi: "Uvays Qaraniy ehson-u iffat va tavsifda tobeinlarning yaxshisidir". Diqqatimizni tortadigan bir holat borki, Payg'ambarimiz u kishini sahoba emas, tobein deb ataganlar. Nega axir u kishi Sarvar ul-anbiyo bilan bir davrda yashaganlar-ku? Barchamizga oftobdekkayonki, sahoba – Rasulullohni ko'rgan, u zot bilan as'hob bo'lgan avliyolardir,



tobeinlar esa Allohning elchisini emas, balki sahobalarni ko'rgan zotlarga nisbatan qo'llanadi. Rostdan ham, Uvays Qaraniy boshqa tobeinlardan yuqoriroqda turishining asl sababi ham shu bo'lsa kerak, chunki u kishi Muhammad Mustafo (s.a.v)ni ko'rmasdan unga iymon keltirgan. Bu islam tarixida uzoq asrlar davomida eng buyuk jasoratlardan biri bo'lib qolgay! Bu mardonavorlikning mukofoti ham o'z qimmatiga yarasha bo'ladi, "bir kuni sahobalar so'radilar:

-Sizdan so'ng Sizning muraqqangizni (qiyqimlardan tikilgan kiyim. Uni odatda darveshlar kiyib yurgan) kimga beraylik?

Aytdilar:

-Uvays Qaraniya berasizlar." Payg'ambarlar sardori – Muhammad (s.a.v)ning nazarlariga tushgan va ulardan mehr va muhabbatning eng cho'qqisini qabul qilgan, hatto ul zotning o'limlarida ham ul kishining xotirasidan faromush bo'limgan eng baxtli insonlardan biri – Uvays Qaraniydir, desak yanglishmagan bo'lamiz.

Hanafiy mazhabiga tamal toshini qo'ygan, "mazham va millat shamchirog'i, din-u davlat shami, daqiq haqiqatlar asosi, ilm-u urfon hujjati, javohirlar ummoni..."<sup>1</sup> Umuman olganda, Sayyid ul-mursalinning eng fozil ummatlaridan biri Abu Hanifa Kufiy hazratlaridir. Payg'ambarimiz ham boshqa asrda yashagan hamda ko'rмаган bo'lsalar-da, ul kishini alohida e'tirof etganlar. Shunday naql qiladilarki, Abu Hanifa hazratlari Sarvar ul-anbiyoning ravzalariga borganda:" Assalaomu alayka, ey sayyid ul-mursalin!" - dedilar. Maqbaradan ham ovoz eshitdiki:" Va alaykum assalom, ey imom al-mursalin!"

Shuningdek, Abu Hanifa hazratlari so'fiylik ilmini juda chuqur egallagan hamda tariqat yo'lidan og'ishmasdan harakat qilganki, u kishining hayot yo'li hozirgi davrda ham arzigelik ibrat maktabini o'tab bera oladi. Masalan, da shunday deyilgan: Dovud Toiy 20 yil hazratning xizmatlarida bo'lib bir kun u kishining oyoq uzatganlarini ko'rмаган edi. Bir kuni u xilvat ichida:"Ey musulmonlar imomi, hech bo'limganda xilvatda oyoq uzatib, dam oling," - deganlarida, adab saqlamoq barcha

<sup>1</sup> "Tazkirat ul-avliyo". Farididdin Attor. [www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com) kutubxonasi. 29-bet



toatdin ortiqdir, deya Imomdan javob oladi. Abu Hanifa hazratlari haqida “Nasoyim ul-muhabbat” kitobida ham xuddi “Tazkirat ul-avliyo”dagi kabi ma’lumot keltirilgan. Bir kuni Imom A’zam fonyi dunyo anjomini yig’ishtirib, zuhd yo’liga o’tdiki, tushlariga Payg’ambarimiz kirib suyaklarini go’rida yig’ib bir-biridan ajrata boshladi. Bu tushning ta’birini Ibn Sirinning shogirdi shunday ta’kidladi: sen Payg’ambarimizning ilmi va sunnatida yuksak darajaga erishasan. Shundan so’ng yana odamzot orasiga qaydi va tushida Payg’ambarimiz unga seni mening ilmimni olamga yoyishing, odamlarga yetkazishing uchun Alloh yaratganki, aslo uzlat qilma, odamlarga oshkor oshkor yashag’il, deya nasihat qildilar. Imom A’zamning maqomati islomda ham yuksak ekanligiga shubha yo’q. Chunki

“ Mashhurki, Yahyo Mu’oz Rasuli Akram(s.a.v)ni voqeada ko’rub so’rdikim, Yo Rasululloh seni qayda tilayin? Javob buyurdikim, Abu Hanifaning ilmi yaqinida”.<sup>2</sup>

Sayyid ul-mursalining muborak e’tiroflariga loyiq bo’lgan, tobeinlarning eng saralaridan biri bo’lgan, chunonchi, islom diniga to’g’ri yo’l bilan eltuvchi tariqat hisoblangan hanafiy mazhabining bunyodkori, tasavvuf olamining shamchirog’i Abu Hanifa hazratlari ekanligi hech qanday dalil va isbotga muhtoj emas. Buni inson taraqqiyotini o’rganuvchi tarix zarvaraqlari ham tasdiqlaydi.

Xulosa qilib aytganda, ushbu ikki buyuk adiblarning go’zal asarlari tasavvuf ta’limotini o’rganishda har qanday tolibi ilm uchun dasturilamal vazifasini shak-shubhasiz bajara oladi. Navoiy Farididdin Attorni “buyuk ustoz” deb bilganini uning avtobiografiyasи ham tasdiq etadi. Navoiy 3-4 yoshlarida Farididdin Attorning “Mantiq ut-tayr” asarini yod olgani, butun umr xayolini bad etgan “Lison ut-tayr” asarini ushbu kitobga nazira sifatida yozgani fikrimizning yorqin dalilidir. Bundan tashqari, Navoiy ijodidagi “Nasoyim ul-muhabbat” asari ham Farididdin Attorning qalamravidan chiqqan “Tazkirat ul-avliyo”ga tazmin bo’lsa, ajab emas. Shunday qilib, bu ikki yuksak so’fiylik ilmi ustozlarining asarlari bir-biriga baqamtidir. Hayratlanarlisi, har ikki asar bir-birini inkor etmaydi va bir-birining shuhratiga ko’lanka solmaydi. Chunonchi, har ikki kitob ham asrlar osha, zamonlar osha, davrlar

<sup>2</sup> “Nasoyim ul-muhabbat”. Alisher Navoiy. [www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com) kutubxonasi.12-bet.



osha insoniyat tafakkurini charxlashga, uning qalb ko'zini ochishga, shayxlar va mutasavvuf olimlardan o'rnak olishga undab, kelajak va din yo'lini chiroq kabi yoritajak!

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. "Tazkirat ul-avliyo". Farididdin Attor. [www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com) kutubxonasi. 29-bet
2. "Nasoyim ul-muhabbat". Alisher Navoiy. [www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com) kutubxonasi.12-bet.
3. Nasimxon Rahmonov. O'zbek adabiyoti tarixi. Toshkent. 2017.
4. R.Vohidov va H.Eshonqulov. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi. Toshkent.2010.